

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

ABDULLAYEVA ZAMIRA PULATXONOVNA

**TELEVIZION JURNALISTIKADA VERBAL VA VIZUAL
KOMMUNIKATSIYALARNING TARKIBI, XUSUSIYATLARI, O‘ZARO
MUNOSABATLARI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
philological sciences**

Abdullayeva Zamira Pulatxonovna

Televizion jurnalistikada verbal va vizual kommunikatsiyalarning tarkibi,
xususiyatlari, o‘zaro munosabatlari..... 3

Абдуллаева Замира Пулатхоновна

Структура, специфика, взаимодействия вербальной и визуальной
коммуникации в телевизионной журналистике..... 19

Abdullayeva Zamira Pulatkhonovna

The structure, specificity, interaction of verbal and visual communication in
television journalism..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

ABDULLAYEVA ZAMIRA PULATXONOVNA

**TELEVIZION JURNALISTIKADA VERBAL VA VIZUAL
KOMMUNIKATSIYALARNING TARKIBI, XUSUSIYATLARI, O‘ZARO
MUNOSABATLARI**

10.00.09 – Jurnalistika (filologiya fanlari)

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018/3/PhD/Fil626 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzjoku.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Akbarov Hamidulla Ilyasovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Ismailova Klimentina Fuzailovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Tog‘ayeva Gulandom
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.14.01 raqamli Ilmiy kengashining 2024-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100017, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06; e-mail: journalism.univer@gmail.com).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100017, Toshkent shahri, Markaz-5, 88-uy. Tel.: (99871) 207-09-06).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Mo‘minov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

A.I.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.f.d., dotsent

N.F.Muratova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ro‘y berayotgan globallasuv, transformatsiya jarayonlari ommaviy axborot vositalarining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari takomillashib borayotgan bir paytda audiovizual jurnalistika tarkibidagi telejurnalistikada o‘ziga xos o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Teleekranning audiovizual tili madaniy-ma‘naviy, iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot jarayonidagi axborotlarni yetkazishda muhim funksiyalarni amalga oshirib, teleko‘rsatuvlarning mazmuni va mundariyasi o‘zgarib, tomoshabinlarga ekran mahsulotlarini uzatishda yangicha yondashuvlar talab etilmoqda. Uning tabiati, tarkibi, o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish tamoyillarini empirik jihatdan kommunikativ tizim sifatida tadqiq etilishiga ehtiyoj ortib bormoqda.

Dunyoning qator mamlakatlari ilmiy tadqiqotchilari tomonidan televideniya tasviriy ifoda vositalaridan foydalanish, verbal va vizual kommunikatsiyalarning o‘zgarishi, jurnalistning ijodiy laboratoriyasi o‘rganilmoqda. Mediaekran “tili”ni tushunishda muallif-jurnalist matni, ovozli-tasvir kabi televideniye kommunikatsiyasining kombinatsiyasi xizmat qilmoqda. Shu bois, ko‘rsatuvlardagi verbal va vizual vositalarning o‘zaro munosabatlarini ta‘minlashda jurnalistning o‘rnini aniqlash, telefirida tasviriy ifoda vositalaridan foydalanishda zamonaviy yondashuvlarni tahlil etish zarurati mavjud. Mavzu doirasida so‘z va tasvir innovasion texnologiyalar ko‘magida bir-birini to‘ldirib, izohlab, ba‘zan estetik maqsadlarda biri ikkinchisiga qarshi qo‘yilib muhim kommunikativ, badiiy qiymatga molik bo‘lgan vazifani bajarishini o‘rganish muhim masalalardan biridir.

O‘zbekistonning yangi davrida ham jurnalistika sohasiga e‘tibor tobora oshib bormoqda. Bugungi kunda “...ommaviy axborot vositalari haqida so‘z yuritganda, biz, avvalo, doimo yangilik izlab, yangilikka intilib, hayotning qaynoq nuqtalariga kirib boradigan, xolislik va haqqoniylik, Vatan va xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan oliyjanob hamda mas‘uliyatli kasb egalarini tasavvur qilamiz”¹ va jurnalist faoliyatida mazkur tavsiflar o‘z aksini topayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Avlodlar ma‘naviy aloqasining muhim bo‘g‘inlaridan biri televideniyaning kommunikativ tizimi, jurnalistning audiovizual vositalardan foydalanish sifatini ta‘minlash masalasi yuzaga kelmoqda. Televideniye asarining samaradorligini oshirishda televizion shakl topa bilish, kadrdagi verbal va vizual vositalarning aloqadorligi hamda mutanosibligini ta‘minlash, jurnalist, rejissyor, operator, umuman televizion jamoa oldida turgan asosiy vazifalarni tadqiq etish, nazariy asoslangan xulosalar chiqarish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-sonli “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”², 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga yo‘llagan tabrigidan. – T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 497.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5653-sonli “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 02.02.2019-yilda qabul qilingan // <https://lex.uz/docs/-4188795>

“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”³, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi⁴ farmonlari, 2022-yil 27-iyundagi PQ-294-sonli “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi⁵ qarori hamda masala bo‘yicha boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Televideniya verbal va vizual vositalarning munosabatlariga doir ilmiy tadqiqotlar rivojlangan mamlakatlar mutaxassislaridan o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda tadqiqot olib borgan Ye.Pronin, G.Kuznetsov, K.Razlogov⁶larning ishlarida jurnalistikaning ifoda vositalari, televideniyaning funksiyalari, ekran tilining xususiyatlari, badiiy imkoniyatlari kabi masalalar o‘rganilgan. E.Yefimov, A.Yurovskiy, N.Goryunova, N.Frolsova, A.Shesterina, V.Berezin, I.Volkova, A.Grabelnikov, N.Gegelova⁷ kabi xorijiy olimlarning tadqiqot ishida audiovizual kommunikatsiyaning tabiati, kadrning kompozitsion tuzilishidagi imkoniyatlar tadqiq qilingan. J.Friske, Dj.Gerbner, G.Maklyuenning kommunikatsiya nazariyasi va amaliyotga oid ishlari soha rivojiga munosib hissa bo‘lib qo‘shildi⁸. Yu.Oganetsova⁹ ilmiy tadqiqot

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 28.01.2022-yilda qabul qilingan // <https://lex.uz/docs/5841063>.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. 11.09.2023-yilda qabul qilingan // <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-294-sonli “Ommaviy axborot vositalarini qo‘llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 27.06.2022-yilda qabul qilingan // <https://lex.uz/docs/6083381>.

⁶ Пронин Е.И. Выразительные средства журналистики. – М.: МГУ, 1980; Кузнецов Г.В. Методика телевизионной журналистики. Учеб.-метод. пособие. – М.: Изд-во МГУ, 1979; Разлогов К.Э. Искусство экрана. Проблемы выразительности. – М.: Искусство, 1982.

⁷ Ефимов Э.М. Замысел, фильм, зритель. – М.: Искусство, 1987; Юровский А.Я. Телевидение – поиски и решения. Очерки истории и теории советской телевизионной журналистики. – М.: Искусство, 1983; Горюнова Н.Л. Художественно-выразительные средства экрана. Ч. 1. Пластическая выразительность кадра. – М., 2000; Фролова А.Т. Типология творческой деятельности в аудиовизуальной коммуникации. – Минск: БГУ, 2003; Шестерина А.М. Парадоксы современного телевидения: проблемы практики в зеркале образования. – Воронеж, 2007; Березин В.М., Волкова И.И., Грабельников А.А. Экранная коммуникация в современном информационном обществе. Учебное пособие. – М.: РУДН, 2008. – 347 с.; Грабельников А.А., Гегелова Н.С. Экранная коммуникация и визуализация журналистики. – Твер: Тверской государственный университет, 2019. – 333 с.

⁸ Gerbner G. Mass Media and Human Communication Theory / Human Communication Theory Original Essays. – New York-Chicago-San Francisco Toronto-London, 1967. – P. 40-60; Friske J. Television Culture / J.Friske – London: Routledge, – 1987. – 353 p.; Маклюэн М. Понимание медиа: Внешние расширения человека. – М.: Жуковский: КАНОН-пресс-Ц, Кучковское поле, 2003. – 464 с.

⁹ Оганесова Ю.А. Выразительные средства телевизионных программ культурно-просветительской тематики. Дисс. на соискание ученой степени кандидата филол.н. – Воронеж, 2014. – 170 с.

ishida televizion dasturlarning tasviriy vositalari, A.Dedov¹⁰ o'quv qo'llanmasida teleko'rsatuvlar kommunikativ tizim sifatida tahlil qilingan. V.Sappak¹¹ asarida televideniyeining asosiy xususiyatlari o'rganilgan bo'lsa, jurnalistika bilan bog'liq qator konseptlar Ye.Proxorov, V.Voroshilov, V.Svik, S.Korkonosenko, T.Lebedevaning¹² darslik va o'quv qo'llanmalarida ishlab chiqilgan.

Mamlakatimiz soha olimlaridan O.Tog'ayev, M.Xudoyqulov, F.Mo'minov kabi olimlarning asarlari jurnalistika faoliyatining qator jihatlarini ochib bergan¹³. A.Karimov¹⁴ tadqiqotida O'zbekistonda televideniyeining paydo bo'lishi va rivojlanishi, F.Fayziyeva O'zbekiston badiiy televideniyesining shakllanishi yuzasidan, I.Rahmatullayeva, P.Allamberganova, Yu.Ortiqova, A.Karimov, Yu.Zohidova¹⁵ mavzu doirasida ilmiy izlanishlar olib borishgan. H.Akbarovning¹⁶ o'quv qo'llanmasida adabiyot va audiovizual san'atlar munosabatlari, televideniyeining dramaturgik asosi yaratilishida uning tajribasi o'zlashtirilishi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, teleradijurnalistikaning taraqqiyot bosqichlari, soha rivojiga hissa qo'shgan jurnalistlarning ijodiy faoliyati bo'yicha to'plamlar¹⁷ nashr etilgan.

Mavjud ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv qo'llanma va monografiyalar qo'yilgan maqsad hamda vazifalari, materiallar qamroviga ko'ra ahamiyatli. Shu bilan birga, televideniyeining verbal va vizual kommunikatsiya vositalari tarkibi, imkoniyatlari hamda chegaralari kompleks ravishda o'rganib, alohida tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Tadqiqot mavzusi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jurnalistika, ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasi va amaliyotining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

¹⁰ Дедов А.Н. Технологии телевизионной журналистики: учебное пособие. – Курган: Изд-во Курганского гос. ун-та, 2017. – 200 с.

¹¹ Саппак В. Телевидение и мы. Четыре беседа. – М.: Искусство, 1988. – 166 с.

¹² Прохоров Е.П. Журналистика. Государство. Общество. – М., 1996; Ворошилов В. Журналистика. – СПб.: Издательство Михайлова В.А., 1999. – 302 с.; Цвик В.Л. Телевизионная журналистика. – М.: Юнити-Дана, 2009. – 496 с.; Корконосенко С.Г. Основы журналистики: Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2006. – 318 с.; Лебедева Т.В. Тележурналистика: темы, жанры, персоны // Актуальные проблемы телевидения и радиовещания. – Воронеж, 2008.

¹³ Tog'ayev O. O'zbek badiiy publitsistikasi (nazariya va mahorat masalalari). – T.: Fan, 1973; Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika (Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri). – T.: Tafakkur, 2011. – 287 b.; Mo'minov F.A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. – T.: Universitet, 1998. – 176 b.

¹⁴ Каримов А. Становление и развитие телевидения в Узбекистане. Автореф. канд. ист. наук. – Т., 1971.

¹⁵ Fayziyeva F.X. "O'zbekiston badiiy televideniyesining shakllanishi" (1956-2000-yillar). Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2009. – 134 b.; Rahmatullayeva I.N. O'zbekiston televideniyesida yoshlar ko'rsatuvlari (badiiy mahorat muammolari). Nomzodlik dissertatsiyasi. – T., 2007. – 165 b.; Allamberganova P. Qoraqalpog'iston televideniyesining janrlari: mavzular, jurnalistik yondashuv va rivojlanish tamoyillari (2000-2006-yillar). Filol.f. nomzodi.dis.avtoreferati. – T., 2007; Ortiqova Yu. Interaktiv jurnalistika. – T.: Mumtoz so'z, 2011; Karimov A.A. "Rekreativlik – zamonaviy telejurnalistikaning global qonuniyati sifatida: milliy va xalqaro tajriba". Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi. – T., 2022; Zohidova Yu. Televideniye va shaxs: teleyangiliklarda boshlovchining o'rnini (ijtimoiy vaziyat, jurnalist pozitsiyasi va mahorat masalalari). Monografiya. – T.: Mumtoz so'z, 2022.

¹⁶ Akbarov H.I. Kino-teledramaturgiya: nazariya va amaliyot. – T.: Ilm ziyo, 2006. – 176 b.

¹⁷ O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi: Zamon bilan hamqadam / Tahrir hay'ati Xadjayev A. va b.; nashr uchun mas'ul: Hayitov Sh., Allamberganova P. – T.: Dizayn-Print, 2022; Televideniye – mening taqdirimda. To'plam / nashr uchun mas'ul: Hayitov Sh. – T.: IJOD-PRESS, 2022; Xadjayev A., Hayitov Sh. Radio va televideniye. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: IJOD-PRESS, 2022.

Tadqiqotning maqsadi televideniya efiirga uzatiladigan ko'rsatuvlar tahlili asosida telejurnalist asaridagi verbal va vizual kommunikatsiyalarning tarkibi, xususiyatlarini, teleportret ocherki janridagi materiallarda foydalanilayotgan ifoda vositalarining munosabatlarini, kommunikativ imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

verbal va vizual kommunikatsiyalarning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash;

telejurnalistikani tadqiq qilishning axborot-kommunikativ paradigmasini asoslash;

televizion jurnalistika tarkibida yozilgan, aytilgan so'zning o'rni va kommunikativ yuklamasi, ko'rsatuv olib borilishi jarayoni, efiirga uzatilishi bilan bog'liq masalalarni tadqiq etish;

tasvir, matn va televizion texnologiyaning kommunikativ munosabatlarini o'rganish hamda ularni tasniflash;

televizion asarda ovoz, musiqiy tovushning ifoda vositalari sifatida mutanosibligini tahlil qilish;

televizion portretning audiovizual tuzilishini o'rganib, mavzuga oid ko'rsatuvlar tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida davlat va nodavlat – "O'zbekiston", "Madaniyat va ma'rifat", "Kinoteatr" hamda "Sevimli" telekanallarining ko'rsatuvlari olindi.

Tadqiqotning predmetini ushbu telekanallar ko'rsatuvlarining kontenti, jumladan, teleocherk va teleportretlar, ifoda vositalarining mavzuni yoritishdagi ta'siri, tili va uslubi, telejurnalist mahorati, teleaxborot estetikasi va kommunikativ jarayondagi o'rni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida kontent tahlil, kompleks, kuzatuv, tizimli funksional va qiyosiy tahlil kabi ilmiy usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

teleko'rsatuvdagi verbal, vizual hamda kommunikativ komponentlarning o'zaro ta'siri aniqlanib, sintetik xususiyatga ega bo'lgan televideniye ijodning boshqa sohalari bilan bog'liqligi tufayli televizion portret ocherklardagi ekran tilining xususiyatlari asoslab berilgan;

mediamuhit ko'rinishlari, turli shovqinlar, ijod mahsulotlari va teleaxborotni retsepsiya qilish imkoniyatlari nazariy jihatdan asoslab berilib, axborotni o'zlashtirish bir vaqtning o'zida insondagi barcha sensor kanallar orqali amalga oshirilishi dalillangan;

televideniyaning axborot-kommunikativ paradigmasining namoyon etilishi murakkab, polifunksional jarayon sifatida tasviriy ifoda vositalarining transformatsiyasi tufayli media asar ifoda vositalarining kombinatsiyasini o'zida qamrab olishi asoslangan;

mumtoz adabiyot hamda ularning miniatyura san'atidagi axborot-kommunikativ model ta'sirchanligi aniqlanib, so'z va tasvirning o'zaro ta'siri, bir-

birini boyitishi kabi omillar bugungi audiovizual madaniyat, televideniyeining ifoda vositalari takomillashuviga xizmat qilishi masalasi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar bilan belgilanadi:

mavzuga tizimli yondashgan holda telejurnalistikada verbal va vizual kommunikatsiyalarning tarkibi, asosiy vazifalari asoslanib, ifoda vositalarining ta'sir miqyosi aniqlangan;

texnologiya san'at – televideniye adabiyot, teatr, radio, kino, tasviriy san'at va fotografiya imkoniyatlarini o'zida birlashtirishi, teleasarning sifat ko'rsatkichi verbal va vizual komponentlarning munosabatlari hamda jurnalist mahoratiga bog'liqligi asoslangan;

jurnalist teleasarni tomoshabinning retsepsiya qilishini hisobga olib tayyorlashga e'tibor qaratish kerak ekanligi dalillangan;

televideniye substansiya sifatida o'rganib, uni doimo o'zgarib, yangilanib turishini verbal va vizual ifoda vositalar tahlili misolida ochib berilgan;

jurnalist axborotni tarqatishi, estetik funksiyani bajarishi yozilgan va aytilgan so'zning teranligi, qamrovi kengligi, ta'rif va tavsifi izchil bo'lishi teledasturlar tahlili jarayonida ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi ko'rsatuvlaridan keltirilgan misollar bevosita tahlil qilingani, ularning amaliy va nazariy jihatdan o'rganilgani, ilmiy manbalarga asoslangani, dissertatsiyada qo'llanilgan metodologik tadqiqot usullar asosida chiqarilgan nazariy qarashlarning va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati televideniye jurnalistikada verbal va vizual kommunikatsiyalarning o'zaro munosabatlarini, uning mohiyatini mavzu doirasida tadqiq etish asnosida yuzaga kelgan nazariy qarashlar umumlashtirildi, sohaning immanent xususiyatlaridan kelib chiqib televideniye asar yaratilishi paradigmatlari nazariy jihatdan asoslanishi jarayonida televideniye mahsulotining tarkibi va uni qabul qilish masalalari yuzasidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilmiy yondashuv yo'llaridan ayrimlarini tavsiya etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot jarayonida to'plangan materiallardan Oliy o'quv yurtlarida televideniye jurnalistika yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchi kadrlarni tayyorlash, ularga ma'ruza o'qish hamda amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin. Jurnalistika nazariyasi va amaliyoti bo'yicha darslik, maxsus kurslar, o'quv, o'quv uslubiy qo'llanmalarni yaratishda, ilmiy tadqiqot loyihalarini ishlab chiqish, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va boshqa tadqiqot ishlarini bajarishda manba vazifasini o'tashi hamda ilmiy xulosalar, tavsiyalarning televideniye amaliyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Televideniye jurnalistikada verbal va vizual kommunikatsiyalarning tarkibi, xususiyatlari, o'zaro munosabatlari mavzusi doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

sintetik xususiyatga ega bo'lgan televideniye ijodning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganib, yoritib borish jarayonida tahlil qilingan tadqiqot

natijalaridan “Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi” faoliyatida qator masalalar, xususan, suratga olinayotgan filmlarda soʻz va tasvirning imkoniyatlarini belgilash, montaj damlarida bunga eʼtibor qaratishda samarali foydalanilgan (“Hujjatli va xronikal filmlar kinostudiyasi”ning 2020-yil 9-iyundagi 01-15/83-sonli maʼlumotnomasi). Buning natijasida kinostudiya tomonidan oʻtkazilgan yosh ijodkorlar bilan uchrashuvlar, seminar va treninglar tashkil qilingan;

mediamuhit koʻrinishlari va turli shovqinlar, ijod mahsulotlari, teleaxborotni retsepsiya qilinishi tadqiq etilib, axborotni oʻzlashtirish bir vaqtning oʻzida insondagi barcha sensor kanallar orqali amalga oshirilishi, koʻrsatuvlar tahlili va ularni qabul qilish jarayoni oʻzaro bogʻliq holda oʻrganilganligi yuzasidan olingan ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Madaniyat va maʼrifat” telekanalining “Kinotalqin” koʻrsatuvi ssenariysini shakllantirishda foydalanilgan (“Madaniyat va maʼrifat” telekanalining 2023-yil 24-fevraldagi 01-02-01/36-sonli maʼlumotnomasi). Natijalar ushbu telekanalda verbal va vizual kommunikatsiyalarning koʻrsatuvlardagi oʻzaro mutanosibligi, koʻrsatuvning tuzilishi, formati va usullarini oʻzgartirishga xizmat qilgan;

tasviriy ifoda vositalarining transformatsiyasi teleportret yaratishning turli davrlardagi evolyutsiyasi asosida qiyosiy tahlil qilib koʻrsatib berilganligiga oid taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Oʻzbekiston” telekanalida efirga uzatilgan “Oila olami”, “Munosabat” tok-shoularining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“Oʻzbekiston” teleradiokanalining 2023-yil 7-iyuldagi 02-13-1066-sonli maʼlumotnomasi). Natijalarning joriy qilinishida teleloyihalarning koʻrinishligi ortdi, ilmiy jihatdan foydaliligiga erishilgan va koʻrsatuvdagi materiallarning ilmiy asoslantirilganligi taʼminlangan;

mumtoz adabiyot hamda ularning miniatyuradagi ifodasi bugungi audiovizual madaniyat, xususan, televizion jurnalistika taraqqiyotiga, ifoda vositalarining shakllanishiga, soʻz va tasvirning oʻzaro taʼsiri, bir-birini boyitishiga xizmat qilishi masalalariga oid taklif va tavsiyalardan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi “Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi”ning ommaviy axborot vositalari faoliyatini takomillashtirish boʻyicha yoʻl xaritasini ishlab chiqishda, soha mutaxassislarining jurnalistlar bilan hamkorlikda mavzuni yoritish boʻyicha salohiyatini oshirishga qaratilgan seminar-trening va konferensiyalarni tashkil qilishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi “Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi”ning 2023-yil 7-apreldagi 03-01-1541-sonli maʼlumotnomasi). Taklif etilgan tavsiyalar axborotni uzatishda harakatlar samarasini oshirish hamda jurnalistika sohasida kadrlarni tayyorlashda amaliy yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida maʼruza koʻrinishida bayon etilgan hamda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy

natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, sakkiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 130 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarining ishonchligi asoslanib, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“So‘z va tasvirning kommunikativ imkoniyatlari audiovizual jurnalistika tizimida”** deb nomlangan birinchi bobi uch paragrafdan iborat bo'lib, unda verbal va vizual kommunikatsiyalarning nazariy-metodologik asoslari, telejurnalistikani tadqiq qilishning axborot-kommunikativ paradigmalari aniqlangan, shuningdek, televizion jurnalistika tarkibida yozilgan, aytilgan so'zning o'rni va kommunikativ yuklamasi, ko'rsatuv olib borilishi jarayoni, efirga uzatilishi bilan bog'liq masalalar tadqiq etilgan.

Bobning birinchi faslida verbal va vizual kommunikatsiyalarning xususiyatlari, mohiyati, televizion kommunikatsiya modeli o'rganilgan. Televideniye real voqelikni ekranda namoyon etib, insonning subyektiv voqeligiga aylanadi hamda kommunikatsiya holatini yuzaga keltiradi. Ommaviy aloqa vositasi televideniye:

– verbal va vizual kommunikatsiya unsurlaridan foydalanib axborotni ko'p sonli auditoriyaga uzatadi;

– kommunikant (tomoshabin) va kommunikator (televideniye, ya'ni mazkur manba orqali axborot berish istagida bo'lgan OAV vakillari, studiyaga taklif etilgan mutaxassis) o'rtasida kommunikativ aloqa o'rnatiladi. Televizion jurnalistika sohasi vakillari vizual, verbal hamda noverbal vositalar bilan axborotni audiovizuallashtiradi va televideniyaning vizuallik xususiyati esa uning ta'sirini oshiradi, kommunikatsiyaning samarasi sezilarli bo'ladi. Televideniye yozilgan so'zni ham, talaffuz etiladigan so'zni ham inkor etmaydi. Bu vosita: a) tasvir yaratishga; b) tasvirni to'ldirishga; v) tomoshabin – tinglovchi bilan aloqa o'rnatishga; g) ko'rsatuvning konsepsiyasini ochishga xizmat qilishi nazarda tutiladi.

Telejurnalistika nazariyasi va amaliyotiga oid tadqiqotlarni o'rganish natijasida obyektning strukturasi kelib chiqib, mavjud modellarga taklif kiritib, televideniyaning kommunikatsiyani, ommaviy axborotni uzatishdagi ifoda vositalarini quyidagi sxemada keltiramiz:



Audiovizual san’at sifatida o‘z mahsulotini yaratayotgan televideniyeining kommunikativ ifoda vositalarini qismlarga ajratib tahlil qilish obyektini batafsil o‘rganishga yordam beradi.

Bobning ikkinchi paragrafida telejurnalistikani tadqiq qilishning axborot-kommunikativ paradigmasi, kommunikatsiya nazariyasida falsafa, mantiq, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, kibernetika, psixologiya, antropologiyadan kelib chiqqan holda hosil bo‘lgan asosiy paradigmalar va televizion kommunikatsiyalarining g‘arbcha paradigmalari tahlilga tortilgan. Axborot-kommunikativ paradigma telejurnalistikaning kommunikatsion tizimini ochib beradi va funksiyalaridan kelib chiqib axborotni yaratadi, saqlaydi va tarqatadi. “Axborot paradigmasining markazida “axborot” va “aloqa” tushunchalari turadi”¹⁸, bu esa muloqot madaniyatining ikki tomonlama bo‘lishini anglatadi. Media makonning kengligi, zamonaviy dunyoning axborot-kommunikatsiya komponentlari jurnalist axboroti shaklini turlichaligiga, auditoriyani jalb etishning usullarini o‘zgartirishga sabab bo‘ldi.

Bobning uchinchi qismida: a) ssenariy tarkibi, yozilish texnikasi; b) yozilgan va aytilgan so‘zning o‘rni; d) ko‘rsatuv olib borilishi jarayoni tahlili; e) mediamuhit tayyorlanishi hamda videokameralarga muhrlanishi; f) efirga uzatilishi bilan bog‘liq masalalar o‘rganildi. Ssenariy Aristotelning “uch aktli tuzilma”siga ko‘ra yozilishi asoslab berilgan. Hayot dinamikasini teleasarda vizuallashtiradigan jurnalistning ssenariydagi qahramoni zamon va makonda harakat qila oladi, yozilgan so‘z dramaturgik zaruriyat bo‘lganda, kadrda va kadr ortida aytilishi ham hisobga olinadi. Televideniye amaliyotdan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiyot

¹⁸Хлебникова А.А. Информационно-коммуникативная парадигма развития современного социума (Запорожье, Украина) // ibr.link/stati-sborniki-nauchnyie/informatsionno-kommunikativnaya-paradigma-89833.html.

asarini soʻzma-soʻz ekranga koʻchirib boʻlmaydi. Soʻz bilan taʼriflangan obraz, voqea, holat, hatto soʻz kommunikatsiyasi ham qayta idrok etiladi, yangi shakl izlanadi. Soʻz oʻrnini tasvir, majoziy ifoda egallaydi. Adabiyotdagi yozilgan soʻz kommunikativ diapazonda jurnalistning aytilgan soʻziga aylanadi. “Aytilgan soʻz yozilgan soʻzga oʻrin beradi. Matnning nutqqa nisbatan bu taxmini koʻrish funksiyasida barqaror poydevor boʻlib: biz eshitganimizdan koʻra koʻproq koʻrgan narsamizga ishonamiz”¹⁹. Soʻzlardan tashkil topgan matn esa kommunikatsiya birligini belgilaydi. Yozilgan soʻz (ssenariy koʻrinishida) ustida ishlash telestudiyada yangi bosqichga koʻtariladi. Jurnalist materialining gʻoyaviy-tematik yechimini fakt va maʼno birliklaridan iborat matn obyektivlashtiradi. Bu kabi mezonlar bilan koʻrsatuvni oʻrgansak: 1) muxtasar intervyular oʻrtasida pauzalar borligi; 2) soʻzlar, iboralar tasvirga hamisha bogʻlanib kelishi; 3) tasvirlanayotgan obyektida voqebandlik tamoyillariga rioya qilinishi namoyon boʻladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Televideniya kommunikativ vositalarining munosabatlari”** deb nomlanib, tasvir, matn va televideniya texnologiyasining kommunikativ munosabatlari, ovoz, musiqiy tovush ifoda vositalari sifatida xilma-xil boʻlishi tufayli uni retsepsiya qilish jarayoni ham bir-biridan farq qilishi masalalari yoritilgan.

Bobning birinchi faslida “Oʻzbekiston” telekanalining “Tashrif”, “Yoʻlchiroq” koʻrsatuvi sonlarida jurnalistning verbal va vizual kommunikatsiyalardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etildi. Ekran elementlari – kadr, kadrlar kompozitsiyasi, dramaturgik tuzilish, plan, rakurs, ovoz (intershum, musiqa), jonli nutq, aytilgan soʻz hamda montaj tasvir va matnning birligini namoyon etadi. Tasvir va soʻzni multimediyaviy hodisa sanalgan televideniyaning maxsus ifoda vositasi deb taʼkidlaymiz, biroq bu maxsuslik soʻz va tasvir oʻrtasidagi tenglikni anglatmaydi. Televideniya mediamatnda verbal, vizual hamda noverbal komponentlar mediaviylik omillarini mujassamlashtiradi va bunda televideniya leksikasining ixchamligi xabarni qabul qilish, ekran tilini tushunish jarayonining samarasini orttiradi.

“Tashrif”da (muallif-boshlovchi Shuhrat Qayumov) kadrdagi qahramon aytgan soʻz koʻrsatuv konsepsiyasini ochib beradi. Vizual tasvir aytilayotgan soʻzning idrok etilishiga taʼsir qilib, ekrandagi detallarning katta-kichikligi tomoshabin eʼtiborini maʼlum bir axborotga qaratgan va bu tasvirning mazmuniga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Xonadonda olib borilgan oʻzaro suhbat tomoshabindagi “qatnashuvchilik effekti”ni kuchaytirib, tomoshabin oʻzini dasturxon atrofidagi suhbat ishtirokchisidek his etadi. Teleobraz yaratishdagi xususiyatlar – kadrning masshtabi, uning vizual ahamiyati, kadrdagi elementlarning muhimlik darajasi hisobga olindi. “Yoʻlchiroq” koʻrsatuvida muallif-jurnalist matndagi faktlarning taʼsirini kuchaytirish uchun oʻzgalar fikriga murojaat qiladi – bu zamonaviy tilda intertekstuallik nomini olgan. Intertekst bir matnning ikkinchisiga nisbati, yaʼni matnning boshqa matnlardagi iqtibos, eslatmalardan qurilganligi. Mediamatni tashkil etgan iqtiboslar, matn ichidagi matn – mutaxassislarining fikriga murojaat

¹⁹ Разлогов К.Э. Новые аудиовизуальные технологии. Авторский коллектив. Едиториал УРСС. – М., 2005 // <http://yanko.lib.ru/books/cultur/razlogov-audio-vijual-a.html>.

etilishi ishonchlikni ham oshiradi. Televizion mediamatni qabul qilishda mediavaziyatlarning “yangiliklar, dialog, hikoya”²⁰ turi tavsiflanadi.

Bobning ikkinchi qismida televizion asarda ovoz va musiqiy tovushning ifoda vositalari sifatidagi mutanosibli tahlilga tortilgan. Efirning ovozli muhiti uch asosiy komponent – nutq, shovqin va musiqadan tashkil topgan. Tasvir diapazonida amalga oshiriladigan telenutqning monolog (bir kishining o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi); dialog (ikki kishi o‘rtasidagi suhbat, gaplar almashinuvdan iborat nutq); polilog (bir necha kishi o‘rtasidagi suhbat) shakllari mavjud. Kadrda yangragan bir xil ovozlari (atrof-muhit, ko‘cha, avtomobil shovqini va boshqalar) tomoshabinga ekrandagi harakat ayni vaqt oralig‘ida sodir bo‘layotgandek taassurot qoldiradi. Media asarlar tarkibidagi musiqaning kayfiyat berish qobiliyati mavjud va bu kartinaning ovoz muhitini, dramaturgiyasini boyitadi. Musiqiy qurilish, musiqiy shakl va musiqiy til qonuniyatlari efirdagi asarning barcha tarkibiy qismlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Televideniye kino musiqasidan o‘rganadigan bir uslub kontrapunkt musiqa sadolarini tasvirga zid qo‘yish bilan jahon kinematografiyasi katta tajriba orttirgan. Televideniye texnikasi endilikda tasmaga bir yo‘la turli manba tarqatadigan ovoz, musiqiy tovush, intershumni yozib olishga qodir bo‘lgan ekan, kontrapunkt uslubi telemahsulotni tayyorlash, ovoz vositalarining barchasidan (bir vaqtda, bir ko‘rsatuvda) foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotda telejurnalist ijodning sintetik turiga xizmat qilishi bois, uning asari:

- nazariy bilimning ko‘lamiga;
- televideniye xususiyatlarini hisobga olib so‘z, jumla tanlashiga;
- ijod mahsulotining turli sharoitda qabul qilinishini qabul qilinishini nazarda olib qalam tebratishiga ta’sir ko‘rsatadi.

“Televizion asarning audiovizual tuzilishi: xususiyatlari va retseptiyasi samaradorligi omillari” deb nomlangan uchinchi bobda adabiyot va san’at asarlari vizual obraz yaratish manbai ekanligi, televizion portretning audiovizual tuzilishi o‘rganilib, mavzuga oid ko‘rsatuvlar tahlil qilingan, telejurnalist faoliyatida axborotning o‘rni, tarkibi va retseptiv xususiyatlari tadqiq etilgan.

Birinchi faslda adabiyot vizual obraz yaratish, qahramon portretini gavdalantirish manbai sifatida televideniye ustozlik qilishi, moziyda – televideniye ixtirosidan ilgari bu masala hal etilganligi tahlil etilgan. Vizual obrazni yaratish adabiyot namunalari, miniatyura hamda ko‘rsatuvlarning tahlili misolida ochib berildi. XXI asrning tomoshabini ayni bir vaqtda tinglovchi ekanligini ham yodda saqlab, tomosha ham audio, ham vizual ifoda vositalarini qamrab olishi, texnikaga tayanishi, bir yo‘la ko‘pchilikka ma’naviy oziq berishi ta’kidlangan.

“Adabiyot va jurnalistikaning umumiy obyekt – inson”²¹, adabiyotda ta’riflangan tasvir o‘quvchini holatga olib kiradi, xayolot dunyosini jonlantiradi.

